

**BUGUNGI KUN NEOLOGIZMLARI VA ULARNING MA'NOSI (11-SINF “ONA  
TILI” DARSLIGI MISOLIDA)**

**Rajabboyeva Gulsevar Otabek qizi**

*ChDPU O'zbek tili va adabiyoti*

*yo'nalishi 2-kurs talabasi*

Rajabboyevagulsevar426@gmail.com

Ilmiy rahbar: **Murodova Firuza Jalolovna**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada hozirgi o'zbek adabiy tilimizning bugungi kunda boyib borayotganligini, uning boshqa tillardan kirib kelayotgan so'zlar bilan hamda tilimizda yangi paydo bo'layotgan so'zlarni ya'ni neologizmlarning tahlilini ko'rishimiz mumkin. Maqolada o'n birinchi sinf darsligida uchraydigan ayrim neologizmlar va ularning tahlili, qo'llanishi yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Neologizmlar, challenge, masterclass, microchip, skype, odnoklassniki, facebook.

Hozirgi o'zbek adabiy tili o'zbek milliy tilining oliy formasi – ishlov berilgan, me'yorlashtirilgan, milliy vakillarining barchasi uchun umumiy bo'lgan barqaror shaklidir. Shuningdek ular chetdan kirgan so'zlar va tilda yangi paydo bo'lgan so'zlar bilan boyib boradi.

Neologizmlar – tilning yangi paydo bo'lgan va yangilik bo'yog'ini yo'qotmagan so'zlardir. Leksik neologizmlar ikki turga bo'linadi.

1. Individual nutq neologizmi.

2. Umumtil neologizmi.

Har qanday neologizm dastlab, ayrim shaxs nutqida voqe bo'ladi, bunday paytda u individual nutq neologizmi sanaladi.

Umum til neologizmi til hodisasi, individual neologizm esa uslubiy hodisa sanaladi. Leksikologiya, asosan, umumtil neologizmi o'rganiladi. Umumtil neologizmi ham nisbiy hodisadir: til taraqqiyotining ma'lum bir bosqichida neologizm bo'lgan so'z, keyinroq neologizmlilik bo'yog'ini yo'qotib, zamonaviy leksik qatlam birligiga aylanadi.

Rezyume – rezyume ko'pincha yangi ish qidirishda ishga qabul qiluvchi bilan (intervyu) suhbat uchun taklif olish maqsadida ishlatiladi. Odatda rezyume bir, ikki sahifadan oshmasligi tavsiya etiladi. (11-bet)



Tavtologiya - yunoncha “tautologiya” aynan o’sha so’zni takroran ortiqcha ishlatish, so’zni ortiqcha takrorlash. (15-bet)

Trapevt – bu psixologlar, ijtimoiy ishchilar, maslahatchilar, hayot murabbiylari va boshqalar kabi har qanday xizmat turlari bo’yicha tayyorlangan mutaxassislar. (18-bet)

Milliy valyuta – muayyan davlat (davlat markaziy banki) tomonidan chiqariladigan valyuta. Birinchi navbatda mamlakat hududida, quvvati va holatiga qarab tashqi savdo va xalqaro hisob-kitob ishlarida qo’llaniladi.(46-bet)

Preproduktiv a’zolar – o’simlik va hayvonlarning ko’payish funksiyasini bajaradigan a’zolar.(54-bet)

Layner – uzoq masofaga ma’lum yo’nalishda grafik bo’yi katta tezlikda uchuvchi ko’p o’rinli samolyoti.(54-bet)

Egosentrizm – “lotincha”, “ego” men va markaz shaxsning o’z qiziqish darajasiga bog’lanib qolishi, hatto o’z tajribasiga qarama-qarshi axborotlarga moslasha bilmasligida iborat, xislat.(73-bet)

Altruizm – “lotincha” alter boshqa-boshqalar. Boshqalarning farovonligi uchun beg’araz g’amxo’rlik bilan bog’liq faoliyatni anglatuvchi tushuncha.(73-bet)

Gedonizm – “grekcha” rohat, huzur, lazzatlanish. Huzur-halovatga, lazzatlanishga intilish insonning oliy maqsadi deb hisoblovchi axloqiy ta’limot.(74-bet)

Konferensiya – lotincha konferentia bir joyga to’playman, davlat yoki partiya, jamoat va olimlar vakillarining muayyan masalani muhokama etish uchun yig’ilishi.(76-bet)

V.Kontakte – shtab-kvartirasi Sankt – Peterburgda joylashgan rus onlayn ijtimoiy media va ijtimoiy tarmoq xizmati.(89-bet)

Odnoklassniki - sinfdoshlar, kursdoshlar, sobiq bitiruvchilar hamda qarindosh va yaqinlarni izlab toppish va ular bilan aloqa qilish uchun yaratilgan ko’p tilli ijtimoiy to’r.(89-bet)

Facebook – 2004-yilda Mark Zuckerberg tomonida va qo’shni xonadagi tomonidan asos solingan ijtimoiy tarmoq.(89-bet)

Skype – foydalanuvchilarga internet tarmog’i uzra telefon qilishi imkonini beruvchi dastur.(89-bet)

Lokatsiya – obyekt o’rnini, joyini u chiqarayotgan, aks ettirayotgan signal, belgi (odatda tovush yoki elektromagnit to’lqinlar)ga qarab aniqlash.



Fleshka – USB Flash Drive (fleshka) kompyuter uchun tashqi axborot va ma'lumotlarni tashuvchi qurilma turi.(106-bet)

Onlayn – kompyuter texnologiyalari va telekommunikatsiya sohasida onlayn ulanish holati.(106-bet)

Oflayn – oflayn esa uzilgan holatini bildiradi.(106-bet)

Bodikamera – audio videokontentni (FullHD formatida) yozish va markazlashmagan tarzda saqlash, keyinchalik ko'yinchalik ko'rib chiqish, favqulodda masofadan turib monitoring qilish imkoniyatini beruvchi moslamadir.(106-bet)

Xeshteg – bu ijtimoiy media platformalarida kontentni guruhlash yoki uni ma'lum bir mavzuga qiziqqan boshqalar tomonidan ishlatiladigan funt yoki xesh belgisi (#) qo'shilgan so'z.(106-bet)

Skaner – “ko'rib chiqmoq”, “qarab chiqmoq” tekis yuzali obyektни raqamli formatga o'tkazuvchi moslamadir.(106-bet)

Parol – bu shaxsni huquqlarni tasdiqlash uchun yaratilgan maxfiy so'z yoki belgilar to'plami. Parol ma'lumotlarni ruxsatsiz kishidan himoya qilish uchun foydalanadi.(106-bet)

Masterklass – professional yoki mahorat egalaridan olingan dars yoki ustoz yordamida berilgan o'quv shartlari.(106-bet)

Mikrochiplash – uy hayvonlarini yo'qotib qo'ymaslik uchun ularning tanasiga chip o'rnatish.(106-bet)

QR kod – inglizcha Quick Response code tezkor javob kodi.(106-bet)

Sayt – bu internetda joylashgan, ba'zi ma'lumotlarni (matn, video, fotosurat)o'z ichiga olgan manzil.(106-bet)

Chellenj – inglizcha “challenge” so'zidan olgan bo'lib, “mas'uliyat” yoki “sinov” ma'nosida ishlatiladi.(106-bet)

Xulosa qilib aytganda, har qanday mamlakatning tili boyib borishi ichki va tashqi yo'llar bilan boyib boradi. Buni so'zlovchilar nutqiga kiritish esa darsliklarning vazifasidir. Zamonaviy so'zlar selday oqib kirayotgan ayni davrda ularning ma'nolari bilan yosh avlodni tanishtirish maqsadga muvofiq. Shuning uchun ham maqolamizda aynan o'smirlik yoshidagi o'quvchilar uchun mo'ljallangan darslikni tanladik. Zero tilimiz boshqa tillardan so'z olib yoki yangi so'z hosil qilib boyib boradi. Kelajak esa yoshlar qo'lidir.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Jamolxonov H., Tojiboyev Y., Shamsiddinov H., Rasulov R. - “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”. Toshkent: 2005
2. Erkaboyeva N., Abdusattorova X. “O‘zbek tili ma‘ruzalar to‘plami” Toshkent: 2023
3. Mengliyev Baxtiyor, Toshmirzayeva Sharofat, Atoyeva Saodat, Majidova Saida “Ona tili” Toshkent: 2020
4. Begmatov E., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mirzayev T., To‘xliyev N., Umarov E., Xudoyberganova D., Xojiyev A. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” Toshkent: 2006

